



**TIBBIYOTDA AHAMIYATGA EGA BO'LGAN ZAHARLI
O'RGIMCHAKLAR**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12512801>

Azimova F.H.

Central Asian Medical University

“Tibbiy biologiya va kimyo” kafedrasida assistenti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, bo'g'imoyoqlilar tipi vakillari hisoblanmish – o'rgimchaksimonlar sinfining eng muhim biologik turlari, morfologik tuzilishlari, inson organizmiga ta'sir etuvchi zaharli vakillari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar

Xelitsera, qoraqurt, biylar, Atrax, Latrodestus, Phoneutria, Loxosseles, neyrotoksin , antikoagulyant

ЯДОВИТЫЕ ПАУКИ, ИМЕЮЩИЕ МЕДИЦИНСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Азимова Ф.Х.

Среднеазиатский медицинский университет

Ассистент кафедры «Медицинская биология и химия».

АННОТАЦИЯ

В статье представлены сведения о важнейших биологических видах паукообразных, их морфологическом строении и ядовитых представителях, поражающих организм человека.

Ключевые слова

Chelicera, черный червь, жуки, Atrax, Latrodestus, Phoneutria, Loxosseles, нейротоксин, антикоагулянт.

POISONOUS SPIDERS OF MEDICAL IMPORTANCE

Azimova F.Kh.

Assistant at the Department of Medical Biology and Chemistry

Central Asian Medical University.

Abstract

The article presents information about the most important biological species of arachnids, their morphological structure and poisonous representatives that infect the human body.

Key words

Chelicera, black worm, beetles, Atrax, Latrodestus, Phoneutria, Loxosseles, neurotoxin, anticoagulant.

O'rgimchaklar - bu o'rgimchaksimonlar oilasiga mansub Haqiqiy quruqlikda yashovchi bo'g'imoyoqlilar, Og'iz organi 2 juft: Og'iz organlarining birinchi jufti ustki jag'lar hisoblanadi. Ustki jag'larning birinchi bo'g'imi harakatchan tirnoqsimon o'simtadan iborat bo'lib, o'ljasi tanasini teshish uchun xizmat qiladi. Jag'larning asosida zahar bezlari joylashgan. Jag'lar sanchilganida zahar tirnoqlar ichidagi naycha orqali o'ljasi tanasiga tushadi va uni o'ldiradi. O'rgimchaklarning ikkinchi juft og'iz organlari oyoq paypaslagichlar deb ataladi. Ular mayda sezgir tukchalar bilan qoplangan bo'lib, tuyg'u organi hisoblanadi. Paypaslagichlarning asosiy bo'g'implari pastki jag'lar vazifasini bajaradi. Butli o'rgimchakning oyoq paypaslagichlari yurish oyoqlariga nisbatan birmuncha kalta. Boshko'krakda uzun va ingichka 4 juft yurish oyoqlari ham joylashgan. Qorin bo'limining hamma bo'g'implari qo'shilib ketgan. Qorning orqa tomonida butsimon oqish dog'i bo'ladi. Shuning uchun unga butli o'rgimchak nomi berilgan. Qorin bo'limining keyingi uchida uch juft o'rgimchak so'gallari (bezar) bo'lib, ularga o'rgimchak bezlarining yo'llari ochiladi, o'pka orqali nafas oladi.

O'rgimchaksimonlar turkumi - Uzunligi 0,7 sm dan 11 sm gacha bo'ladi. Ko'pchilik o'rgimchaklar tanasi qisqa poyacha orqali tutashgan yaxlit boshko'krak va qorin bolimidan iborat; faqat bo'g'imqorinli o'rgimchaklar tanasi bo'g'implarga bo'lingan. Xelitserasiga zahar bezlari yo'li ochiladi. Qorin bo'limi keyingi qismida 1-4 juft to'r bezlari joylashgan. 51000 dan ortiq turi mavjud, jumladan O'zbekistonda bir necha yuz turi bor. 3 kenja turkumga ya'ni: bo'g'imqorinlilar, qushxo'r o'rgimchaklar va o'pkali o'rgimchaklarga bo'linadi. Bo'g'imqorinlilar tuban tuzilgan 10 ga yaqin tropik o'rgimchaklarni o'z ichiga oladi. Qushxo'r o'rgimchaklar, asosan, tropikada tarqalgan, 1500 ga yaqin yirik (10 sm gacha) turlardan iborat.

Ko'pchilik o'rgimchaklar murakkab to'r to'qib, o'ljasini to'r yordamida tutadi. Faol hayot kechiradigan turlari to'r to'qimaydi, inda yashaydi. Yirtqich oziqlanadi, ayrim turlari uchun kannibalizm xos. O'rgimchaklar zararkunanda va parazit hasharotlar va boshqalar. Umurtqasizlar bilan oziqlanishi tufayli foydali hisoblanadi. Qoraqurt va biylar zahri o'rgimchak bo'lib, odam uchun xavfli. O'rgimchaklar ko'p odamlarda qo'rquv va fobiyani keltirib chiqarsa-da, ularning aksariyati odamlar uchun zararsizdir. Shunga qaramay, ba'zi o'rgimchaklar bilan



noto'g'ri "muloqot qilish" inson salomatligi uchun tahdid solishi mumkin. Yer yuzida ma'lum bo'lgan 43 000 xil o'rgimchak turining deyarli barchasida zaharli bezlar mavjud. Ular bu bezlardan o'ljasini harakatsizlantirish va hazm qilish uchun foydalanadi. Zahar boshning old qismida joylashgan xelitser – kichik ilgakka o'xshash tuzilmalar yordamida yuboriladi. Zahar tarkibida ovqat hazm qilish fermentlari, neyrotoksin yoki antikoagulyant kabi turli xil moddalar bo'lishi mumkin. Ular o'rgimchakka o'ljani boshqarish va osonroq so'rishga yordam beradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, o'rgimchak turlarining aksariyati odamga tajovuz qilmaydi va zahari biz uchun zararsizdir. O'rgimchakning ayrim turlarigina o'ta xavfli hisoblanadi. Bularga Atrax, Latrodestus, Phoneutria, Loxosceles deb ataluvchi o'rgimchak turlari kiradi. Mazkur ro'yxatdagi eng xavfli o'rgimchak voronkasimon Atrax o'rgimchaklari bo'lib, ular Agelenidae oilasiga mansub. Atrax o'rgimchaklari hayot uchun xavf tug'diruvchi ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Avstraliyada yashovchi dahshatli Sidney o'rgimchagi, ya'ni Atrax robustus bunga misol bo'la oladi. Uning o'ta kuchli zahari tarkibidagi neyrotoksin hayot uchun xavfli bo'lgan alomatlarni paydo qiladi. Agar zudlik bilan tibbiy yordam ko'rsatilmasa, bunday o'rgimchak kichkina bolani atigi besh daqiqada, besh yoshli bolani esa 2 soat ichida o'ldirishi mumkin. Biroq, Sidney o'rgimchagi chaqishi natijasida yuzaga kelgan o'lim holatlari juda kam kuzatiladi. Masalan, Avstraliyada 1980 yillardan beri hech qanday o'lim holati qayd etilmagan.

Yevropa va AQSHda yashovchi Tegenaria turiga mansub o'rgimchaklar ham zaharining toksikligi tufayli potensial xavfli tur hisoblanadi. Ularning zahari odatda Sidney o'rgimchaklari kabi kuchli bo'lmasa-da, ba'zi o'ta sezuvchan odamlarda nojo'ya mahalliy reaksiya va boshqa tizimli alomatlarga olib kelishi mumkin. Latrodestus deb ataluvchi o'rgimchak zahari bo'g'ma ilon zaharidan o'n besh baravar kuchliroqdir. Ammo faktlar shuni ko'rsatmoqdaki, 1980-yillarning boshidan beri bu o'rgimchaklar chaqishi natijasida hech qanday o'lim holati qayd etilmagan. Braziliyadagi Phoneutria o'rgimchaklari barcha o'rgimchak turlari ichida nevrologik jihatdan o'ta faol zaharga egaligi bilan ajralib turadi. Ammo uning zahari tanaga juda sekin tarqalgani uchun tibbiy yordam xodimlari jarohatlangan insonga yordam ko'rsatish uchun yetarlicha vaqtga ega. Eng xavfli Loxosceles reslusa deb ataluvchi o'rgimchak turini, asosan, AQSHda uchratish mumkin. Uning zahari og'riq va isitmani keltirib chiqarish ehtimoli mavjud. Zahar hatto arteriya va tomirlarga ham ta'sir ko'rsatib, zararlangan to'qimalar nekrozi va turli infeksiya kasalliklarga olib kelishi mumkin. Biroq bu o'rgimchak chaqishi juda kam hollardagina o'limga sabab bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. P.X.Xoliqov, A.Q.Qurbonov, A.O.Daminov, M.V.Tarinova “Tibbiy biologiya va genetika” Toshkent 2018-yil.
2. T.E.Ostanaqulov, I.X.Xamdamiyov, I.T.Ergashev, K.Q.Shermuhamedov “biologiya va genetika” Toshkent 2014-yil.
3. K.N.Nishonboyev, J.N.Hamidov “Tibbiy biologiya va genetika” Toshkent 2005-yil.
4. Internet sahifalari: www.google.com, wikipediya.uz